

HADIS ADABIYOTI TARAQQIYOTI VA VARROQCHILIK AN'ANASINING SHAKLLANISHI

Jo‘rayev Muxriddin Xasanovich

Denov tadbirkorlik va pedagogika institute
katta o‘qituvchisi

Email:muxriddin241992@gmail.com

<https://orcid.org/0009-0000-5532-0616>

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola tasnif davrida hadis adabiyotining shakllanishida varroqlarning tutgan o‘rnini tahlil qiladi. Varroqlar asosan kitob istinsohi (nusxa ko‘chirish) bilan shug‘ullangan mutaxassislardir va ular xususan, hadis asarlarining keyingi avlodlarga yetib kelishida muhim vositachilar bo‘lgan. Maqolada dastlab varroq tushunchasining tarixiy evolyutsiyasi, tasnif davridagi hadis varroqlarining faoliyati va bu faoliyatning hadis adabiyotining shakllanishiga ta’siri ko‘rib chiqiladi. Tadqiqot natijasida, hadis merosining avlodlarga yetib kelishida varroqlarning ilmiy va madaniy hissasi muhim omil bo‘lib xizmat qilgani yoritiladi.

Kalit so‘zlar: Hadis, tasnif, nusha, varroq, mustamli, kotib, bozor, kutubxona, mazhab, din, Shom, Bag’dod.

THE DEVELOPMENT OF HADITH LITERATURE AND THE FORMATION OF THE WARRAQ TRADITION

ABSTRACT

This article analyzes the role of copyists (Warraq) in the formation of Hadith literature during the classification period. Warraqs were specialists primarily engaged in the transcription of manuscripts, playing a crucial role in transmitting Hadith works to future generations. The study first explores the historical evolution of the concept of warraq, then examines the activities of Hadith copyists during the classification era and their impact on the development of Hadith literature. The findings reveal that the scholarly and cultural contributions of warraqs were instrumental in preserving and transmitting the Hadith heritage across generations.

Keywords: Hadith, classification, manuscript, warraq, mustamli, scribe, market, library, madhab, religion, Syria, Baghdad.

РАЗВИТИЕ ХАДИСОВСКОЙ ЛИТЕРАТУРЫ И ФОРМИРОВАНИЕ ТРАДИЦИИ ВАРРАКОВ

АННОТАЦИЯ:

В статье анализируется роль варраков (переписчиков) в процессе формирования хадисовской литературы в период её классификации. Варраки, занимавшиеся в основном перепиской рукописей, выступали важным звеном в передаче хадисов последующим поколениям. В исследовании сначала рассматривается историческая эволюция понятия «варрак», затем — деятельность хадисовских переписчиков в эпоху классификации и их влияние на развитие хадисовской письменной традиции. В результате выявлено, что научный и культурный вклад варраков сыграл ключевую роль в сохранении и передаче хадисовского наследия.

Ключевые слова: хадис, классификация, рукопись, варрак, мустамли, писец, рынок, библиотека, мазхаб, религия, Шам, Багдад.

KIRISH

Hadis tarixida kitobat davridan keyingi bosqich tadvin davri sifatida tanilgan. Tadvin davrida tasnif etilgan asarlar hadis ilmining tasnifi uchun muhim asos bo‘lgan. Ammo, mazkur tasnif davri ko‘proq hadis tadvining davomidir va hijriy II asrning birinchi choragidan IV asr boshlarigacha bo‘lgan davrni qamrab oladi. Bu davrda hadis asarlari roviylari va mavzulari bo‘yicha tartiblangan va asosiy hadis manbalari tasnif etilgan. Mazkur davrda tasnif qilingan asarlar, shu davrda yashagan ulamolar va xalq qatlamiga yetkazish, shuningdek, keyingi davrlarga barqaror ilmiy meros qoldirish maqsadida ko‘paytirilgan. Asarlarning nusxalarini tayyorlashda varroqlar eng muhim rolni bajarganlar. Chunki tasnif etilgan asarlar yo‘qolib ketish yoki zarar ko‘rish xavfiga qarshi, mustamli va talabalar qatori varroqlar tomonidan ham ko‘paytirilgan[1. 51.s].

Asarlarni ko‘paytirishda muhim rol o‘ynagan varroqlar orasida ma’lum haq evaziga asarlarni ko‘chirganlar bo‘lganidek, faqat muayyan bir olimning asarlarini nusxalagan varroqlar ham bo‘lgan. Bunday varroqlar xususiy varroqlar deb atalgan. Varroqlar shu bilan birga islom madaniyatiga boy meros ham qoldirganlar. Ular tomonidan ko‘paytirilgan bu asarlar yo‘qolmasdan bizgacha yetib kelgan va hadis adabiyotining shakllanishida muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qilgan.

TADQIQOT METODOLOGIYASI

Ushbu tadqiqotda tarixiy-faktologik, matnshunoslik va manbashunoslik yondashuvlari uyg‘unlashtirildi. Avvalo, hadis adabiyotining shakllanish jarayonida varroqlik kasbining o‘rni tarixiy izchillik asosida tahlil qilindi. Bu jarayonda manbalardagi xronologik ma’lumotlar asosida varroqlarning faoliyati davriy jihatdan

tasniflandi. Shuningdek, varroq tushunchasining semantik tahlili amalga oshirilib, uning turli tarixiy bosqichlardagi ma’no o‘zgarishlari izohlandi.

Tadqiqotda sifatli kontent tahlili usuli asosida hadis manbalari, tabaqot va tarjimayi hol asarlaridagi varroqlarga oid axborotlar o‘rganildi. Ularning hadis ilmidagi o‘rni, asarlarning nusxalanishidagi amaliy faoliyati va ilmiy muhitga ta’siri tahlil qilindi. Shu bilan birga, kitob nusxalash an’anasining rivojlanishi, varroqlarning ijtimoiy va ilmiy maqomi, ularning hadis merosining uzviy saqlanishiga qo‘sghan hissasi o‘rganildi. Bu biografik ma’lumotlar orqali hadis adabiyotining shakllanishida bevosita ishtirok etgan varroqlarning individual hissasi aniqlashtirildi. Shu tariqa, varroqlik faoliyati nafaqat texnik yozuv amaliyoti, balki ilmiy merosni avlodlarga yetkazuvchi madaniy vosita sifatida talqin qilindi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Tadqiqot davomida asosan ilk islomiy davrga oid hadis, tarjimayi hol (tabaqot), ansob va kutubxona tarixiga oid manbalar tahlil qilindi. Jumladan, as-Sam’oni (vaf. 562/1166)ning *al-Ansob*, Tojuddin as-Subkiy (vaf. 771/1370)ning *Tabaqot ash-Shofe’iyya*, Ibn Sa’d (vaf. 230/845)ning *at-Tabaqot al-Kubro* kabi asarları asosiy manba sifatida xizmat qildi. Bu asarlar varroqlarning faqat texnik yozuvchi emas, balki hadis ilmining faol ishtirokchilari bo‘lganligini tasdiqlaydi.

Bundan tashqari, Ahmad ibn Hanbal, Imom Shofe’iy, Imom Muslim, Muhammad ibn Hasan ash-Shayboniy kabi yirik muhaddislar va faqihlarning asarlaridan va ular haqida yozilgan manbalardan varroqlik faoliyatiga nisbatan tarixiy-madaniy munosabatlar o‘rganildi. Aytish joizki, mazkur manbalar varroqliknı ilmiy va diniy qadriyatlar tizimida baholashga imkon yaratdi.

Zamonaviy tadqiqotlar orasida yozma madaniyatning shakllanishi, kitobat va istinsoh faoliyatining rivoji, islom ilmiy muhitida mutaxassisliklarning ixtisoslashuvi jarayoni haqidagi izlanishlar tahlil qilindi. Jumladan, varroqlik faoliyatining mustansihlik, kotiblik, muqovalash va kitob savdosi kabi boshqa faoliyat turlari bilan aloqador jihatlari yoritildi. Bu tahlillar varroqlik faoliyatining ko‘p qirrali va murakkab tarixiy shakllanish jarayonini tushunishga zamin yaratdi.

Tahlil natijalari shuni ko‘rsatadiki, varroqlik faoliyati hadis ilmi tarixida oraliq bo‘g‘in bo‘lib, u yozma madaniyat va og‘zaki rivoyat madaniyati o‘rtasida uzviy bog‘lovchi vosita sifatida shakllangan. Bu faoliyat, ayniqsa, tasnif davrida, hadis asarlarini ko‘paytirish, saqlash va targ‘ib etishda beqiyos ahamiyat kasb etgan.

MUHOKAMA VA NATIJALAR

Lug‘aviy jihatdan “varaqqa o‘xshash, yozish uchun mo‘ljallangan yupqa teri yoki qog‘oz” ma’nolarini bildiruvchi hamda “varaq” so‘zidan yasalgan “varroq” so‘zi — yozuv uchun mo‘ljallangan varaqlarni tayyorlash, yozish va nusxa ko‘chirish kabi ma’nolarda qo‘llanilgan. Varroq atamasi to‘rt xil ma’noda ishlatilgan: birinchisi — nusxa ko‘chirish bilan shug‘ullanuvchilar; ikkinchisi — yozuv anjomlarini sotuvchilar; uchinchisi — kitob muqovalovchilar; to‘rtinchisi esa — kitob sotuvchilardir.

Sam’oniy (vaf. 562/1166) o‘zining *Ansob* nomli asarida varroqni quyidagicha tariflagan: “Bu nom Qur’on, hadis va boshqa kitoblarni ko‘chirib yozuvchi kishilar uchun ishlatiladi. Shuningdek, Bag‘dodda varaq, ya’ni qog‘oz sotuvchi kishilar uchun ham qo‘llaniladi”[2. 300. s]. Tojuddin as-Subkiy (vaf. 771/1370) ham varroqlik vazifasini bajaruvchilarni qog‘oz sotuvchilar sifatida ta’riflagan[3. 102. s]. Umuman olganda, kitob ko‘chirish, nusxa tayyorlash, muqovalash yoki davlat muassasalaridagi yozishmalarni yozish bilan shug‘ullanadigan mutaxassislar “varroqun/varroqlar” deb atalgan[4. 175-192. s].

Islom madaniyati va ilmiy merosida muhim o‘rin tutgan varroq tushunchasi, turli davrlarda turlicha ma’nolarda ishlatilgan. Bu ma’nolar qog‘oz va yozuv anjomlarining savdosi, kitob savdosi hamda kitoblarning ko‘paytirilishi bilan bog‘liq bo‘lgan. Ilk ikki asrda bu atama asosan kitob nusxalovchilar uchun qo‘llanilgan. Shu sababli varroqlarga "nassoh" ya’ni nusxa ko‘chiruvchi degan nom ham berilgan. Varroqlar hijriy I asrda Qur’on va hadis kitoblarini ko‘chirish bilan shug‘ullangan bo‘lsalar, II asr oxirlaridan boshlab bu ikki asosiy ilm sohasi bilan bir qatorda adabiyot, tarix va tabaqotga oid kitoblarni ham ko‘chira boshlaganlar. III asrga kelib esa bu atama kitob sotuvchilarga nisbatan ham ishlatilgan[5. 646. s].

Rasululloh sallallohu alayhi vasallamning ibratli hayotini bizgacha yetkazishda an’ana va madaniyatning o‘rni katta. Bu an’ana va madaniyat, hadis matnlari orqali biz bilan Payg‘ambar hayoti o‘rtasida ko‘prik vazifasini bajaradi[6. 287. s]. Ana shu ilmiy ko‘prikni barpo etishda varroqlik faoliyati ham muhim ahamiyat kasb etadi. Bu vazifani bajargan varroqlar, asosan, ulamo tabaqasidan bo‘lib, eng ko‘p hadis sohasida asarlar yozganlar. Ibn Sa’d (vaf. 230/845)ning *Tabaqot* asari boshchiligidagi ko‘plab manbalarda keltirilgan va ayniqsa tasnif davrida yashagan varroqlar, kitob savdogarlari sifatida emas, balki muhaddis va roviy bo‘lganliklari uchun bunday manbalarda zikr etilganlar. Varroqlik kasbining ahamiyatini ta’kidlash uchun Ahmad ibn Hanbal (vaf. 241/855) shunday degan: “Agar bir kasb egallaganimda, varroqlikniga tanlagan bo‘lardim.[7. 388. s]”

Varroqlardan biri bo‘lgan Muhammad ibn Ahmad al-Marvaziy (vaf. 329/941), insonlarga sadaqa niyatida kitob ko‘chirishini va katta talab tufayli Imom Muslim

(vaf. 261/875)ning hadis majmuasini bir yil ichida yetti marta yozganini aytgan[8. 2357. s]. Bundan tashqari, Imom Shofe’iy (vaf. 204/820), Horun ar-Rashid (vaf. 193/809) bilan bo‘lgan suhbatida Muhammad ibn Hasan ash-Shayboniy (vaf. 189/805)ning kitoblarini bir kechada nusxalatish uchun varroq yollab, 100 dinor bergenini eslatgan[8. 2397. s]. Horis ibn Usoma (vaf. 282/895) ham varroqlariga har kuni ikki dinor to‘lab, kitob nusxalash ishiga katta ahamiyat bergenini ko‘rsatgan[9. 158. s].

Boshqa tomondan, varroqlar og‘zaki madaniyatdan yozma madaniyatga o‘tish jarayonida ham muhim rol o‘ynaganlar. Jumladan, Rasululloh sallallohu alayhi vasallam tomonidan hadis yozishga ruxsat berilganini bildirishga oid isnodlarda varroq roviylar ishtirok etgan. Haq evaziga kitob ko‘chiradigan mustansihlar ham ba’zida varroqlar bilan birga ishlaganlar[10. 317. s].

Hadis kitoblarining yozilishi va sotilishi bilan bog‘liq xalq faoliyatiga oid dastlabki manbalar Umaviylar davrining oxirlariga borib taqaluvchi qadimiylar manbalarga tayanadi[11. 175. s]. Umaviylar davrida varroqlik vazifasini bajargan va varroq unvonini olgan kishilar mavjud bo‘lgan, biroq bu davrga oid manbalar yetarli bo‘lmagani sababli varroqlar va ularning faoliyati haqida ko‘p ma’lumot mavjud emas. Yozuv materiallari sifatida tosh, suyak, o‘simplik barglari va terilardan foydalanilgan bo‘lib, ularni tayyorlash mushkulligi, Misr papirusining esa qimmatligi tufayli varroqlik Umaviylar davrida e’tiborga molik darajada taraqqiy etmagan. Rasmiy hujjatlar yozilgan papiruslar, ularning yuqori narxi sababli, ustidagi yozuvlar o‘chirilib, yangi hujjatlar uchun qayta ishlatilganligi ma’lum. Umaviylar davrida varroqlarning eng muhim mashg‘uloti Qur’on va hadis rivoyatlaridan tashkil topgan sahifalarni ko‘chirishdan iborat bo‘lgan. Garchi qog‘ozdan foydalanish Hazrati Umar davrigacha borib taqalsa-da, madaniy sohadagi muhim taraqqiyotlar hijriy II asrning ikkinchi yarmida qog‘ozning islom diyori ichida ishlab chiqarilishi va keng tarqalishi natijasida yuzaga chiqqan[5. 646. s].

Tasnif davrida deyarli har bir shaharda verroq bozor va rastalari mavjud edi. Ushbu rastalarda olimlar va adiblar kitob ko‘chirish bilan shug‘ullanganlar. Tasnif davri va undan keyingi bosqichlarda kitoblar ana shu yo‘l bilan ko‘paytirilgan. Verroqlar verroq do‘konlarini ochgan, bu do‘konlarda har qanday ilmiy sohada, jumladan, hadis ilmi borasida ham asarlar ko‘paytirilgan va ilm talablariga yetkazilgan. Verroq rastalari, shu bilan birga, suhbatlar va ilmiy munozaralar o‘tkaziladigan madaniy markazlarga aylangan edi[10. 23. s].

Varroq do‘konlarida kitob oldi-sotdisi amalga oshirilgani kabi, o‘zaro kitob almashuvlari ham bo‘lgan[12. 23. s]. Biroq, varroq rastalariga salbiy nazar bilan qaragan yoki ularni hadis rivoyatining ishonchlilikiga tahdid soluvchi va

suiiste'mollarga sabab bo'lishi mumkin deb hisoblagan ulamolar ham mavjud edi. Masalan, Abu'l-Faraj al-Isfahoniy (v. 356/967) eng yolg'onchi roviylar doim varroq bozorlarida kezib yurishlarini va varroq do'konlarida vaqt o'tkazishlarini aytadi. Uning fikricha, bunday roviylar varroq do'konlariga kirar, rivoyatlar mavjud bo'lgan ko'plab sahifalar va kitoblarni olib, ularni uyiga olib ketar edi. So'ngra esa bu rivoyatlarning barchasini go'yoki o'ziga tegishli deb da'vo qilib, keyingilarga shu tarzda yetkazardi[13. 398. s]. Ba'zi hadis asarlarining mualliflariga tegishli bo'lmasligi ana shunday holatlardan kelib chiqqani ehtimoldan xoli emas.

Varroq rastalari ichida eng mashhuri va faoliyati eng yuksak bo'lgani Bag'doddagi rasta edi. Yoqut al-Hamaviy (v. 294/907) hijriy III asrning oxirlarida Bag'dodda yuzdan ortiq varroq do'konni mavjud bo'lganini qayd etadi. Manbalarda "Suuqu'l-Varroqin (varroqlar bozori)" atamasi Bag'doddagi kitob savdosi kontekstida ishlatiladi. Xatib al-Bag'dodiy (v. 463/1071) esa Bag'doddagi varroq do'konlari kitoblarga to'la bo'lganini bildiradi.

Bag'doddagi varroq do'konlarida kitob savdosining juda keng tarqalganligi sabablaridan biri — Bag'dodning poytaxt bo'lishi, hamda ko'plab olimlar voyaga yetgan ilmiy va madaniy markaz bo'lib xizmat qilganidir. Qohirada ham Amr ibn Os masjidi atrofida varroq do'konlari keng faoliyat yuritgan. U yerda kitoblar sotiladigan varroq do'konlari "Suuqu'l-Kutubiyyin", qog'oz savdosi bilan shug'ullanuvchi do'konlar esa "Suuqu'l-Varroqin" deb nomlangan. Rivoyat qilinishicha, Zarkashiy (v. 794/1392) "Suuqu'l-Kutubiyyin"ga borganda, butun kunni kitoblarni ko'zdan kechirish bilan o'tkazar va muhim deb topgan joylardan qaydlar olardi. Keyinchalik, bu qaydlarni o'z yozgan asarlariga kiritgan.

Makkada Qur'on nuxxalarini ko'chirish bilan shug'ullangan varroq do'konlari mavjud bo'lgan. Shomda esa varroq do'konlari turli hududlarda joylashgan bo'lib, kitob yozish bilan shug'ullanuvchi do'konlar va yozuv materiallari sotiladigan rastalar alohida hududlarda joylashgan edi. Shuningdek, Shomdag'i varroq do'konlari bir necha bor yong'inga uchragani va minglab jild kitoblar yonganda nobud bo'lgani qayd etilgan. Yuqoridagi ilmiy markazlardan tashqari, Andalus, Basra, Halab, Kufa va Bursa kabi hududlarda ham varroq rastalari mavjud bo'lgan.

Varroqlar faoliyat yuritgan shaharlarda madaniy markazlarning shakllanishida muhim rol o'ynaganlar. Shuningdek, ular mafkuraviy g'oya va qarashlar targ'ib qilingan va yoyilgan makonlar sifatida ham faoliyat ko'rsatganlar. Ba'zan bu do'konlarda yarim tunlargacha ilmiy majlislar tashkil etilgan, kitoblar esa ijaraga ham berilgan. Shu tariqa har qanday uchrashuv va muloqotlarga vositachilik qilgan bu do'konlar ko'p funksiyali xususiyat kasb etgan. Varroqlar o'z do'konlarida o'zlariga yordamchi sifatida nusxalash (munstansih)larni yollaganlar. Ba'zan ular vafot etgan

olimlarning merosida qolgan kitoblarni ko‘paytirganlari ham kuzatilgan. Masalan, Zaynuddin al-Iraqiy (vaf. 806/1404) hadis olimi Mo‘g‘ultoy ibn Qilichning (vaf. 762/1361) vafotidan so‘ng uning merosidagi bir kitobni izlab topgan va ko‘paytirgan. Shu sababli meroslar (tarakalar) varroqlar uchun alohida ahamiyatga ega bo‘lgan. Ahmad ibn Hanbal (vaf. 241/855) vafot etganida uning merosida Imom Shofe‘iyga tegishli “ar-Risola” asarining eski va yangi nusxalari aniqlangan. Ibn al-Qiftiy (vaf. 646/1248) varroqlarning tarakalardan (meros) topib sotgan kitoblari haqida ma’lumot bergen. Shuningdek, varroqlar asosiy daromad manbalaridan birini ham aynan shu tarzda topganliklari ko‘rinadi.

Varroqlar ilk uch asrda hadis kitoblarini ko‘paytirishda faol ishtirok etganlar. Bu jarayonda ular eng ko‘p samo’ (Eshitish) va qiroat (O‘qish) metodlarini qo‘llaganlar. Ayniqsa, dars jarayonida eshitganlarini yozib olib kitob holiga keltirganlar va shu tarzda bir nechta nusxalar paydo bo‘lgan. Bu metod bosmaxona vazifasini bajargan bo‘lib, bir kitobdan bir nechta nusxa hosil bo‘lishiga olib kelgan. Ba’zi varroqlar noqonuniy ishlarga ham qo‘l urganlar. Ular ayrim kitoblarga, asosan yuqori narxga sotish maqsadida, samo’ va ijozat yozuvlarini qalbakilashtirib qo‘sghanlar, mashhur bo‘lmagan muallifning asarini mashhur muallifga nisbat bergenlar, istinsoh (nusxalash) jarayonida matnga qo‘shimchalar kiritganlar. II va III asrlarda yozilgan kitoblardagi hadis isnodlarida ko‘plab varroqlarning ismlari uchraydi. Varroqlar imlo majlislarida qatnashib, asarlarning ilk nusxalarini yozganlar. So‘ngra bu yozgan asarlarini muallif shogirdlari tomonidan yozilgan nusxalar bilan solishtirib, ularni ko‘paytirib sotganlar. Ularning vazifalaridan biri ham yozilgan nusxani asl nusxa bilan taqqoslab, mos kelishini tekshirish bo‘lgan. Masalan, Bahhosiy ismli varroq hadislari to‘plangan asarlarni istinsoh qilgan. Nusxani yozgach, uni ikki kishiga qiroat va samo’ yo‘li bilan o‘qib bergen va uchinchi kishiga esa tahrir va to‘g‘rilash uchun tekshirtirgan.

Tasnif davrida yozilgan kitoblar, keyinchalik yangi qo‘s Shimcha va qisqartirishlar bilan qayta tahrir qilingan, bu esa turli nusxalarning vujudga kelishiga sabab bo‘lgan. Masalan, Ali ibn Hasan al-Abd, Abu Dovudning (vaf. 275/889) “Sunan” asarini olti marta tinglagani va shu yo‘l bilan uni o‘zlashtirgani haqida xabar beradi. Al-Lu’lu’iy (vaf. 333/945) esa Abu Dovud “Sunan”ni to‘rtinchi marta o‘qiganida 911-raqamli hadisini o‘qimaganini bildiradi. Biroq Lu’lu’iy bu hadisdagi ijozat huquqini avvalgi tinglovlarda olganligi sababli uni “Sunan”ga kiritganini aytadi. Imom Molik (vaf. 179/795) ham “Muvatto”“sini doimiy ravishda tahrir qilib, har safar uning hajmini qisqartirgan. Shu sababli “Muvatto”“ning 80 dan ortiq nusxasi bizgacha yetib kelgan. “Muvatto”“ning rivoyatchisi Yahyo ibn Yahyo al-Laysiy (vaf. 234/849)ga tegishli nusxa asl holida to‘liq nashr qilingan.

Varroqlar istinsoh qilgan ba’zi hadis asarlarida ataylab yoki behosdan jumla yoki so‘zлarni tushirib qoldirish, qo‘shimcha kiritish kabi shakliy xatolar ham yuzaga kelgan va bu holat nusxalar o‘rtasidagi tafovutlarga sabab bo‘lgan. Tasnif davrida varroqlar kitoblar yozilishida ularni o‘quvchilarga yetkazishda vositachi bo‘lganlar. Shu bilan birga, mualliflar uchun manba topishda ham muhim tadqiqotchilar darajasiga yetganlar. Masalan, Tabariy (vaf. 310/923) varroq Husayn ibn Hubayshga qiyos ilmi bo‘yicha yozilgan asarlarni topishni buyurgan, u esa bu mavzuda 30 ta asar topib, Tabariyga topshirgan va Tabariy bu asarlarni o‘rgangach, yana qaytarib bergen.

Tasnif davrida yozilgan ko‘plab jild-jild asarlarning varroqlar tomonidan ko‘paytirilmasligi va shu sababli bizgacha yetib kelmasligining bir qancha sabablari mavjud. Fikrimizcha, quyidagi uch sabab eng asosiy omillar sirasiga kiradi: Birinchidan, musnad va mu‘jam kabi ensiklopedik uslubda yozilgan jild-jild asarlarning xalq orasida o‘qilmasligi. Bu turdagи asarlar yoki umuman o‘qilmagani, yoki yuqorida ta’kidlaganimizdek, bob tizimi asosida yozilgan kitoblarga nisbatan ommalashmaganligi varroqlarning ularni ko‘paytirishiga to‘sinqilik qilgan. Natijada bu turdagи kitoblar bob tizimidagilarga qaraganda kamroq nusxalarda saqlanib qolgan. Ikkinchidan, ommaviy qiziqish bo‘lmagan asarlarning savdosi yuritilmagani uchun varroqlar ularni ko‘paytirmaganlar. Varroqlar va nusxakashlar, asosan, bozorda xaridorgir bo‘lgan kitoblarni ko‘paytirganlar. Bu holat esa ularning keyingi avlodga yetib borishiga xizmat qilgan. Uchinchi sabab esa mualliflarning kambag‘alligi bo‘lib, bu ularga asarlarini nashr etishda to‘sinqilik qilgan. Iqtisodiy ahvoli sababli Ali ibn al-Madiniy (vaf. 234/848-49) kabi ba’zi mualliflarning ko‘plab asarlari bizgacha yetib kelmagan. Uning taxminan 30 ta asari bugungi kunga yetib kelmagan deb aytildi. Buxoriy (vaf. 256/870)ning taxminan 28 ta, Muslimning esa 22 ta asari bizgacha yetib kelmagan. Ushbu hadis olimlarining iqtisodiy sharoitiga nazar tashlaganda, ayrim asarlarini ko‘paytira olmaganliklarining sababi ularning moliyaviy imkoniyatlarining pastligi bilan bog‘liqligi ayon bo‘ladi. Ehtimol, yozuv materiallarining qimmatligi va varroqlarning kitob nusxalashni pullik asosda amalga oshirganliklari ham bunday asarlarning ko‘paytirilmasligiga sabab bo‘lgan.

Bular bilan bir qatorda, davlat arboblarining har bir kitobdan o‘zlarida nusxa saqlamasliklari, shia-sunniy kabi mafkuraviy tafovutlar, mo‘g‘ullarning kitoblarni yo‘q qilishi hamda ijtimoiy mavqeい past bo‘lgan mualliflarning asarlariga bo‘lgan e’tiborsizlik kabi holatlar kitoblarning bizgacha yetib kelishiga to‘sinqilik qilgan. Bozorda mashhur bo‘lgan yoki bo‘lmagan ba’zi asarlarning varroqlar tomonidan ko‘paytirilishida mazhabiy omillar ham muhim rol o‘ynagan deb hisoblaymiz. Masalan, Imom Shofe‘iyga tegishli “ar-Risola” asarining keng tarqalishida Shofe‘iy

mazhabiga mansub varroqlarning hissasi bo‘lgan. Xuddi shuningdek, ensiklopedik asar bo‘lgan Ahmad ibn Hanbalning “Musnad” asarining keng tarqalishida ham Hanbaliy varroqlarning roli katta bo‘lgan. Imom Molikning “Muvatto” sining keng yoyilishida ham bu omillarni tilga olish mumkin. Buxoriy (vaf. 256/870), Muslim (vaf. 261/875), Abu Dovud (vaf. 275/889), Termiziy (vaf. 279/892), Nasaiy (vaf. 303/915) va Ibn Mojaning (vaf. 273/887) asarlarining keng tarqalishida ularning Ahl al-hadis maktabiga mansubligi ham muhim rol o‘ynagan. Demak, bir muallifni o‘ziga ibrat deb bilgan varroqlar uning asarlarini ko‘paytirgan va shu tariqa asarlarning saqlanib qolishiga xizmat qilganlar. Bu bilan biz ushbu asarlarning faqat varroqlar vositasida saqlanib qolganini da’vo qilmoqchi emasmiz. Haqiqatda, hadis asarlarining rivoyat orqali o‘tishi, mustamlilar tomonidan ko‘paytirilgani ham tarixiy haqiqatdir. Biroq roviy, shogird va mustamlilar bilan bir qatorda varroqlar ham bu vazifani o‘z zimmalariga olganlar. Shunday qilib, varroq ayni paytda mustamli va roviy ham bo‘lishi mumkin edi. Shu bois, bu toifadagi kishilarning kitob ko‘paytirish faoliyatini bir-biridan butunlay mustaqil amalga oshirgan deb aytish zaif ehtimoldir.

NATIJALAR

Tadqiqot natijalari quyidagi asosiy xulosalarni ilgari surishga imkon berdi:

1. Varroqlik faoliyati hadis ilmining rivojida muhim bo‘g‘in bo‘lgan. Ular nafaqat matnlarni nusxalovchi shaxslar, balki ilmiy jarayonning faol ishtirokchilari sifatida e’tirof etiladi.
2. Hijriy II–IV asrlarda hadis adabiyotining yozma shaklga o‘tishi jarayonida varroqlar markaziy rol o‘ynagan. Ular yirik muhaddislarning shogirdlari, kotiblari yoki mustansihlari sifatida matnlarning ishonchli tarzda saqlanishi va avlodlarga yetkazilishida vositachilik qilganlar.
3. Hadis rivoyati va varroqlik faoliyati o‘rtasida chuqr integratsiya mavjud. Varroqlar ayrim hollarda hadis aytish (rivoya)da ham ishtirok etgan, ba’zan esa ishonchli roviy sifatida isnod zanjiriga kirgan.
4. Varroqlik faqat texnik ish emas, balki diniy-ma’naviy mas’uliyat talab qiluvchi ilmiy faoliyat sifatida shakllangan. Bu esa varroqlarning ijtimoiy maqomi va ilmiy obro‘sining yuqori bo‘lishiga zamin yaratgan.
5. Tarixiy manbalar va tabaqot asarlarida varroqlar haqida aniq, ko‘p hollarda tafsilotli ma’lumotlar mayjud bo‘lib, ular asosida hadis ilmining yozma ravnaqidagi uzviylik va meros uzatilishi aniqlashtirilgan.

XULOSA

Islom an’anasida muhim tushunchalardan biri bo‘lgan *varroq* atamasi tarixiy davrlar mobaynida turli ma’nolarda qo‘llanilgan. U yozuv materiallari savdosi, kitob

sotilishi, kitoblarning ko‘paytirilishi kabi turli ma’nolarni ifoda qilgan bo‘lsa-da, asosan kitob istinsohi (nusxa ko‘chirish) ma’nosida ishlatilgan. Bu atama III asrdan boshlab aynan shu mazmunda keng qo‘llanila boshlagan.

Varroqlar og‘zaki madaniyatdan yozma madaniyatga o‘tish jarayonida muhim rol o‘ynaganlar. Shu orqali yozuv va kitobga asoslangan islomiy tamaddunning shakllanishiga katta hissa qo‘shganlar. Hazrati Payg‘ambar (s.a.v.) tomonidan hadis yozishga berilgan ruxsat bilan bog‘liq isnod zanjirlarida varroq roviylar ham ishtirok etganlar. Ba’zan varroqlar pul evaziga kitob ko‘chiruvchi mustansixlar bilan birga ham ishlaganlar.

Varroqlarning istinsoh faoliyatidagi markazlaridan biri bo‘lgan *varroq bozorlari* tasnif davrida deyarli har bir shaharda mavjud edi. Ushbu bozorlarda faqat adiblar emas, balki hadis olimlari ham kitob ko‘chirish bilan shug‘ullanganlar. Dastlabki davrlarda kitoblar aynan shu bozorlarda ko‘paytirilgan. Bu yerda istinsax qilingan asarlar boshqa hududlarga va keyingi avlodlarga yetkazilgan. Varroq bozorlari faqat istinsoh maskani bo‘lib qolmay, balki suhbatlar va ilmiy muzokaralar o‘tkaziladigan madaniyat markazlari ham bo‘lgan. Shu sababli, ular ilmiy bilimlar ishlab chiqarilishi va tarqalishida ham muhim rol o‘ynaganlar, deb aytish mumkin.

Tasnif davrida varroq bozorlari orasida eng mashhuri Bag‘doddagi bozor bo‘lgan. Bu yerda varroq do‘konlarining serqatnov bo‘lishi, Bag‘dodning xalifalik poytaxti bo‘lishi va bu yerda ko‘plab olimlarning istiqomat qilganligi bilan bog‘liqdir. Qohirada ham Amr ibn Os masjidi atrofida varroq do‘konlari faoliyat olib borgan.

Varroqlar istinsoh qilingan nusxalardagi tafovutlarga ham sezilarli darajada ta’sir ko‘rsatganlar. Tasnif davrida yozilgan hadis kitoblari isnodlarida ko‘plab varroqlarning nomi uchraydi. Varroqlar hadis asarlarining dastlabki nusxalarini imlo majlislarida ishtirok etib yozganlar. Keyin esa bu nusxalarni mualliflarning shogirdlari yozgan nusxalar bilan taqqoslab, mosligini tekshirib, ko‘paytirib sotganlar. Varroqlar nusxa yozilgandan so‘ng uni asl nusxa bilan taqqoslab, muvofiqligini tekshirganlar.

Tasnif davrida yozilgan ko‘p jildli asarlarning varroqlar tomonidan istinsoh qilinmaganligi va shu bois hozirgi zamonamizgacha yetib kelmaganligining bir necha sabablari bor. Bu sabablardan uchtasi quyidagilardan iborat: birinchidan, *musnad* va *mu‘jam* kabi ensiklopedik uslubda yozilgan ko‘p jildli kitoblar oddiy xalq orasida ommalashmagan; ikkinchidan, ommalashgan kitoblar ko‘chirilgan va ulardan foyda ko‘rilgan, ommalashmagan kitoblar esa ko‘chirilmagan; uchinchidan, mualliflarning iqtisodiy ahvoli yomon bo‘lganligi tufayli ular o‘z asarlarini nashr eta olmaganlar. Masalan, iqtisodiy jihatdan muhtoj bo‘lgan Ali ibn al-Madiniy kabi mualliflarning

ko‘plab asarlari bizgacha yetib kelmagan. Xuddi shuningdek, Imom Buxoriy va Imom Muslim kabi mashhur hadis mualliflarining ham ko‘plab asarlari yo‘qolgan.

Tasnif davrida hadis istinsohi bilan shug‘ullangan varroqlarning ba’zilari hadis isnodlarida roviy sifatida tilga olingan. Ulardan ba’zilarining rivoyatlari *Kutub assitta* asarlarida joy olgan bo‘lsa, ba’zilariniki bu asarlarda uchramaydi. Xuddi shuningdek, varroqlar orasida ishonchli (*siqa*) bo‘lganlar bo‘lgani kabi, tark etilgan (*matruk*) va inkor etilgan (*munkar*) bo‘lganlar ham bo‘lgan. Rijol ilmi olimlari bu varroqlar haqida tegishli baholarni bergenlar. Hadis asarlarini ko‘paytirish va ularni bizgacha yetkazishda varroqlarning faoliyati muhim o‘rin tutganligi bois, Islom madaniyati va ilmiy merosida varroqlik kasbi muhim ijtimoiy-ma’naviy vazifalardan biri bo‘lgan.

TAVSIYALAR

1. Hadis ilmi tarixida varroqlarning ilmiy merosini alohida yo‘nalish sifatida tadqiq etish lozim. Ularning faoliyatini mustaqil ravishda o‘rganish hadis yozma madaniyatining tarixiy asoslarini chuqurroq anglash imkonini beradi.
2. Tabaqot, ansob va tarjimai hol asarlaridagi varroqlar haqidagi ma’lumotlarni zamonaviy biografik tahlil usullari bilan qayta tadqiq etish lozim. Bu orqali islom ilm-fan tarixidagi kotib, nusxalovchi va targ‘ibotchilar zanjiri mukammalroq yoritiladi.
3. Hadis asarlarini istinsoh qilgan varroqlar ro‘yxatini tuzish, ularning geografik va mazhabiy mansubligini aniqlash hadis madaniyatining tarqalish dinamikasini ko‘rsatishda muhim ahamiyat kasb etadi.
4. Islom kutubxonachiligi va varroqlik faoliyati o‘rtasidagi aloqalarni chuqurroq o‘rganish, bu ikki tizim o‘rtasidagi uzviylikni ilmiy jihatdan yoritish imkonini beradi.
5. Yozma madaniyat tarixiga oid tadqiqotlarda varroqlik faoliyatini sivilizatsion kontekstda baholash, ya’ni uni faqat diniy emas, balki madaniy, ilmiy va texnologik taraqqiyot bilan bog‘liq holda o‘rganish taklif etiladi.

ADABIYOTLAR:

1. Ahmet Özdemir, İbadîyye’nin Ana Hadis Kitabı, (Ankara: Araştırma Yayınları, 2020), 51.
2. Abu Sa‘d Abdulkarim ibn Muhammad ibn Mansur as-Sam’oni, al-Ansob, thq. Abdurrahman ibn Yahyo, (Haydarabod: Doiratu'l Maorifi'l Usmoniyya, 1962), 8/300
3. Abu Nasr Tojuddin Abdulvahhob ibn Ali ibn Abdilkofiy as-Subkiy, Muidu’n-niam va mubidu’n-nikam, (Qahira: Maktabatu Hanjiy, 1948),

4. Senâ Meysun Timurtaş, “Verrâklığa Dair Bibliyografik Bir Çalışma”, Van İlahiyat Dergisi, 8, (2020) 13, 175-192.
5. İsmail E. Erünsal, “Verrâk”, DİA, Ek-2, 646.
6. Nurullah Agitoğlu, Hadis ve Bağlam, (İstanbul: Kitabi Yayıncıları, 2015), 287
7. Abu'l-Hasan Izzuddin Ali ibn Muhammad ibn Muhammad ash-Shayboniy al-Jazariy, al-Lubob fi tahrîbi'l-Ansob, (Bayrut: Doru's Sadr.) 388.
8. Abu Abdillah Shihobuddin Yoqut ibn Abdillah al-Hamaviy, Mu'jamu'l-Udabo, thq. Ihsan Abbas, (Bayrut: Doru'l G'arbi'l Islamiy, 1993), 5/2357.
9. Abu'l-Fazl Shihobuddin Ahmad ibn Ali ibn Muhammad al-Asqaloniy, Lisonu'l-Mezon, (Bayrut: Muassasatu'l-A'lamiy, 1971) 2/158.
10. İsmail E. Erünsal, Orta Çağ İslam Dünyasında Kitap ve Kütüphane, (İstanbul: Timaş Yay., 2018), 317.
11. A'zâmî, Muhammed Mustafa. İlk Devir Hadis Edebiyatı. Çev. Hulusi Yavuz. İstanbul: İz Yay., 1993.
12. Abdullah b. Abdulmut'i. al-Varroqun va asaruhum fi'l-hadis. Gazza: Jomiatu'l-Islamiy, Doktora Tezi, 1436/2015.
13. Bag'dodiy, Abu Bakr Ahmad ibn Ali ibn Sobit. Tarixu Bag'dod. nshr. Bashshar Avvod Ma'rûf. Bayrut: Doru'l G'arbi'l-Islamiy, 1423/ 2002.